

Ayol baxti- xalqimiz va jamiyatimiz baxtidir


// 04 July 2024 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/ayol-baxti-xalqimiz-va-jamiyatimiz-baxtidir>



Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli va faolligini oshirish borasida korxonada olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan "Ayol baxti-xalqimiz va jamiyatimiz baxtidir" g'oyasi ostida seminar-trening o'tkazildi.

Tadbirni "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi Sanobar Abduraxmonova ochib berdi. Shuningdek, unda O'zbekiston mahallalari uyushmasi mas'ul xodimi Gulnora Yo'lchiyeva, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi vakili Lobar Shodiyeva, Toshkent viloyati psixologik xizmati sho'basi mudiri Shoira Xakimova, xalqaro festivallar sovrindori Kimyoxon Kosimxonovalar ishtirok etishdi.



Seminarda 100dan ortiq xotin-qizlar tanlovlarda faol ishtirok etdi. Trening davomida turli psixologik o'yinlar o'tkazilib, ayollarning ayni paytdagi ruhiy holati haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Savol-javoblarga boy o'tgan tadbirda faol ishtirok etgan xotin-qizlar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.





"Ammofos-Maxam" AJ Axborot xizmati